



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 312 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Saida</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	
Statistical Analysis of Experimental Work and Evaluation of Educational Effectiveness in Teaching Bioethics	233
Salimova Malika Rashidbekovna	
Talabalarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	240
Axatova Sabina Qo'shmurod qizi	
Talabalarda sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	247
Ismatov Feruz Mamarasulovich	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini integrativ o'qitish zarurati va o'ziga xos xususiyatlari	254
Fayzullayeva Xolida Axmadjon qizi	
Ingliz tilini o'rganishda motivatsiya va o'quvchilarni rag'batlantirish usullarining ahamiyati	258
Sirojov Daler Kironboyevich	
Mikrokredit tashkilotlarini vujudga kelishi va bekor bo'lishining huquqiy asoslari	263
Madumarov Talantbek Tolibjonovich, Qalandarova Mubinabonu Fayziddin qizi	
Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlari... ..	268
Taylanova Sh. Z., Turayeva Dilnoza Niyatullo qizi	
A Methodology for Using Digital Educational Technologies in Preparing Students to Teach Subject-Specific Disciplines in English in Non-Philological Fields of Study	274
Mirzayeva Khilolakhon Bakhromali kizi	
Deviant xulqli o'smirlarda konfliktli xulq shakllanishida ota-ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	281
Otamirzayev Muzaffar Bahodir o'g'li	
Biologiya fanidan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning innovatsion metodlari va ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati.....	287
Xalilova Maqsad Ravshanovna	
Leading Schools for Gifted Students: Contextual Demands on the Principal and the Case for Creative Competence	293
Zarina I. Ganiyeva	
Aholi o'rtasida gipodinamiyani (kamharakatlikni) bartaraf etishda o'z-o'zini nazorat qilish usullari	297
Sharipova Faridaxon Akmaljon qizi	
Lobachevskiy geometriyasi: noevklid geometriyaning nazariy asoslari, geometrik xususiyatlari va ta'limdagi ahamiyati.....	301
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Adabiyot ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	305
Sulaymonova Nafisa Sattorovna	



ADABIYOT TA'LIMI JARAYONIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

UDK 372.881.1

Sulaymonova Nafisa Sattorovna

 Navoiy davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrası
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot ta'limi jarayonida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi badiiy matnni idrok etish, anglash, talqin qilish va unga munosabat bildirish jarayonlarining og'zaki hamda yozma nutq rivojiga ta'sirini aniqlash, nutqiy faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni asoslashdan iborat. Tadqiqotda pedagogik kuzatish, qiyosiy-tahliliy, tavsifiy, tizimli tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tahlillar natijasida nutqiy kompetensiyaning shakllanishi o'quvchining yosh va individual-psixologik xususiyatlari, tafakkur faolligi, motivatsiyasi, emotsional idroki, refleksiyasi hamda kommunikativ ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi. Adabiyot darslarida muammoli savollar, dialogik muloqot, badiiy matn interpretatsiyasi, mustaqil fikr bayoni, munozara va refleksiv topshiriqlardan tizimli foydalanish o'quvchilarning fikrni mantiqiy, izchil, mazmunan aniq va kommunikativ vaziyatga muvofiq ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishi asoslandi. Tadqiqot natijalari adabiyot ta'limida nutqiy kompetensiyani shakllantirishni lingvistik bilimlar bilan cheklamasdan, kognitiv, kommunikativ, emotsional va refleksiv jarayonlar uyg'unligiga asoslangan yaxlit pedagogik-psixologik tizim sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: adabiyot ta'limi, nutqiy kompetensiya, pedagogik-psixologik asoslar, nutqiy faoliyat, badiiy matn, kommunikativ kompetensiya, kognitiv faoliyat, emotsional idrok, refleksiya, dialogik muloqot, mustaqil fikrlash, matn interpretatsiyasi.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical and psychological foundations of developing students' speech competence in the process of literature education. The study aims to determine the influence of perceiving, comprehending, and interpreting literary texts, as well as expressing personal responses to them, on the development of oral and written speech, and to substantiate the pedagogical conditions that contribute to the improvement of speech activity. The research employs pedagogical observation, comparative-analytical, descriptive, systemic analysis, and generalization methods. The findings indicate that the development of speech competence is closely associated with students' age-related and individual psychological characteristics, cognitive activity, motivation, emotional perception, reflection, and communicative needs. It is substantiated that the systematic use of problem-based questions, dialogic interaction, literary text interpretation, independent expression of ideas, discussion, and reflective tasks in literature classes contributes to the development of students' ability to express their thoughts logically, coherently, accurately, and appropriately in accordance with a given communicative situation. The results of the study demonstrate the necessity of viewing the development of speech competence in literature education not merely as the acquisition of linguistic knowledge, but as an integrated pedagogical and psychological system based on the interaction of cognitive, communicative, emotional, and reflective processes.

Key words: literature education, speech competence, pedagogical and psychological foundations, speech activity, literary text, communicative competence, cognitive activity, emotional perception, reflection, dialogic interaction, independent thinking, text interpretation.



Аннотация: В статье с научно-теоретической точки зрения анализируются педагогико-психологические основы формирования речевой компетенции учащихся в процессе литературного образования. Цель исследования заключается в определении влияния процессов восприятия, осмысления, интерпретации художественного текста и выражения собственного отношения к нему на развитие устной и письменной речи, а также в обосновании педагогических условий, способствующих совершенствованию речевой деятельности. В исследовании использованы методы педагогического наблюдения, сравнительно-аналитического и описательного анализа, системного анализа и обобщения. В результате анализа установлено, что формирование речевой компетенции тесно связано с возрастными и индивидуально-психологическими особенностями учащихся, активностью мышления, мотивацией, эмоциональным восприятием, рефлексией и коммуникативными потребностями. Обосновано, что систематическое использование на уроках литературы проблемных вопросов, диалогического общения, интерпретации художественного текста, самостоятельного изложения мыслей, дискуссий и рефлексивных заданий способствует развитию у учащихся умений логично, последовательно, содержательно точно и в соответствии с коммуникативной ситуацией выражать свои мысли. Результаты исследования показывают необходимость рассматривать формирование речевой компетенции в литературном образовании не только как овладение лингвистическими знаниями, но и как целостную педагогико-психологическую систему, основанную на взаимодействии когнитивных, коммуникативных, эмоциональных и рефлексивных процессов.

Ключевые слова: литературное образование, речевая компетенция, педагогико-психологические основы, речевая деятельность, художественный текст, коммуникативная компетенция, когнитивная деятельность, эмоциональное восприятие, рефлексия, диалогическое общение, самостоятельное мышление, интерпретация текста.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchining bilimni o'zlashtirishi bilan bir qatorda, uni og'zaki va yozma shaklda mantiqiy, izchil hamda kommunikativ vaziyatga mos ravishda ifodalash qobiliyatini rivojlantirish ustuvor pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, adabiyot ta'limi badiiy matnni anglash, mazmuniy qatlamlarini tahlil qilish, obrazlar tizimini baholash va muallif g'oyasiga munosabat bildirish orqali o'quvchining nutqiy faoliyatini faollashtirish uchun keng didaktik imkoniyatlarga ega. Shu jihatdan adabiyot darslarida nutqiy kompetensiyani shakllantirish faqat til birliklaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini emas, balki mustaqil fikrlash, mazmunni talqin etish, dalillash va fikrni kommunikativ maqsadga muvofiq ifodalash qobiliyatlarini ham qamrab oladi.

Nutqiy kompetensiyaning shakllanishi murakkab pedagogik va psixologik jarayon bo'lib, unda o'quvchining yosh xususiyatlari, tafakkur darajasi, xotira, diqqat, tasavvur, motivatsiya, emotsional idrok va refleksiv faoliyat kabi omillar o'zaro ta'sirda namoyon bo'ladi. Badiiy asarni o'qish jarayonida o'quvchi matndagi voqea-hodisalarni shunchaki qabul qilmaydi, balki ularni individual tajribasi, bilim darajasi va qadriyatlar tizimi asosida qayta anglaydi. Mazkur kognitiv-emotsional jarayon fikrning shakllanishi hamda uning nutq orqali ifodalanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli adabiyot ta'limida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasi pedagogik ta'sir vositalari bilan bir qatorda, o'quvchining psixologik rivojlanish qonuniyatlarini ham hisobga olishi zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyot darslarida an'anaviy savol-javob va reproduktiv topshiriqlarning ustunligi ayrim hollarda o'quvchini tayyor mazmunni qayta bayon qilishga yo'naltirib, uning mustaqil nutqiy faoliyati hamda ijodiy tafakkurini yetarli darajada faollashtirmaydi. Nutqiy kompetensiyani samarali shakllantirish esa badiiy matn yuzasidan muammoli vaziyatlar yaratish, dialog va munozaralarni tashkil etish, obrazlar xatti-harakatlarini baholash, matnni turli nuqtayi nazardan interpretatsiya qilish, dalillangan fikr bildirish hamda refleksiv topshiriqlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday faoliyat o'quvchining lug'at boyligini kengaytirish bilan cheklanmay, fikrni mazmunan yaxlit, mantiqan asoslangan va nutqiy vaziyat talablariga muvofiq tarzda qurish malakasini rivojlantiradi. Shundan kelib chiqib, adabiyot ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari aniqlash, uning tarkibiy omillari va rivojlanish mexanizmlarini tizimli yoritish dolzarb ilmiy-metodik masala sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi adabiyot darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik hamda psixologik omillarni aniqlash, badiiy matn bilan ishlash jarayonining nutqiy faoliyatga ta'sirini asoslash va samarali metodik shart-sharoitlarni belgilashdan iborat. Ushbu yondashuv nutqiy kompetensiyani lingvistik bilim, kognitiv faoliyat, kommunikativ tajriba, emotsional munosabat va refleksiv tafakkur o'zaro uyg'unlashadigan kompleks ta'limiy hodisa sifatida talqin etish imkonini beradi. Nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari shaxsning tafakkuri, nutqiy faoliyati va ijtimoiy muloqoti o'rtasidagi uzviy bog'liqlik haqidagi nazariy qarashlarga tayanadi.

L. S. Vygotskiy tafakkur va nutqning o'zaro rivojlanishini insonning ijtimoiy-madaniy tajribani o'zlashtirish jarayoni bilan bog'lab, nutqni fikrni shakllantiruvchi hamda tashqi ifodaga olib chiquvchi psixologik mexanizm sifatida talqin qiladi ^[1].



A. A. Leontyev nutqiy faoliyatni motiv, maqsad, mazmun va kommunikativ vaziyat asosida tashkil topadigan faoliyat turi sifatida izohlab, uning rivojlanishida muloqot ehtiyoji va faol nutqiy amaliyotning ahamiyatini asoslaydi^[2].

Mazkur yondashuvlar adabiyot darslarida o'quvchining badiiy matnni o'qishi, anglash va talqin qilishi, unga shaxsiy munosabat bildirishi hamda o'z fikrini og'zaki yoki yozma shaklda ifodalashi o'zaro bog'liq psixologik jarayonlar ekanini ko'rsatadi. Adabiyot ta'limining pedagogik imkoniyatlari badiiy matnning o'quvchi tafakkuri va emotsional-kechinmaviy tajribasiga ta'siri bilan belgilanadi. Badiiy asarni o'zlashtirish jarayonida idrok, diqqat, xotira, tasavvur, emotsiya va tafakkur birgalikda faoliyat ko'rsatib, o'quvchining matn mazmunini qayta qurishi, obrazlarning xatti-harakatlarini baholashi, muallif pozitsiyasini anglashi va mustaqil xulosa chiqarishiga zamin yaratadi.

M. M. Baxtinning dialogik muloqot haqidagi qarashlarida mazmunning boshqa fikr bilan munosabatga kirishish jarayonida chuqurlashishi ta'kidlanadi^[3]. O'quvchining badiiy asar yuzasidan savol qo'yishi, fikr bildirishi, dalillashi, munozarada ishtirok etishi va muqobil talqinlarni baholashi uning nutqiy faolligini kuchaytiradi. Shu nuqtayi nazardan, adabiyot darsi tayyor bilimni o'zlashtirish maydoni emas, balki matn, o'quvchi va pedagog o'rtasidagi faol kommunikativ hamkorlik orqali nutqiy kompetensiya shakllanadigan pedagogik muhit sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kompetensiyaviy, kommunikativ, konstruktivistik hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning ta'lim jarayoniga tatbiqi o'quvchining mustaqil fikrlashi va nutqiy faolligini rivojlantirish bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

CEFR konsepsiyasida kommunikativ kompetensiyaning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik tarkiblari bilan bir qatorda, interaksiya hamda mediatsiya jarayonlariga alohida e'tibor qaratilishi ham nutqning faol ijtimoiy va kognitiv xususiyatini tasdiqlaydi^[4]. Adabiyot ta'limida esa bunday yondashuv badiiy matn interpretatsiyasi, muammoli savollar, dialogik muloqot, munozara, ijodiy topshiriq va refleksiv faoliyat orqali amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston pedagogik tadqiqotlarida ham nutqiy kompetensiyani ona tili va adabiyot ta'limi, kommunikativ yondashuv, psixolingvistik jarayonlar va interfaol metodlar bilan bog'liq holda rivojlantirish masalalari yoritilgan^[5, 6]. Biroq mavjud tadqiqotlarda adabiyot ta'limining o'ziga xos imkoniyatlari badiiy idrok, emotsional munosabat, obrazli tafakkur, interpretatsiya, dialog, refleksiya va mustaqil nutq yaratish jarayonlarining o'zaro pedagogik-psixologik bog'liqligi yaxlit tizim sifatida yetarli darajada ochib berilmagan. Shu sababli adabiyot ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik va psixologik mexanizmlarini integrativ yondashuv asosida tadqiq etish zarurati mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda adabiyot ta'limida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslarini aniqlash uchun nazariy va qiyosiy tahlil, tizimli-strukturaviy yondashuv, pedagogik-psixologik interpretatsiya, umumlashtirish hamda tasniflash metodlaridan foydalanildi. Nutq va tafakkur, badiiy idrok, kommunikativ faollik, motivatsiya va refleksiyaga oid ilmiy qarashlar qiyosiy o'rganildi. Badiiy matnni idrok etish, anglash, talqin qilish, baholash hamda fikrni og'zaki va yozma ifodalash jarayonlari nutqiy kompetensiyani rivojlantiruvchi asosiy pedagogik-psixologik omillar sifatida tahlil qilindi. Tizimli tahlil asosida adabiyot darslarida nutqiy kompetensiyani shakllantirishga ta'sir etuvchi kognitiv, motivatsion, emotsional, kommunikativ va refleksiv omillarning o'zaro funksional bog'liqligi aniqlandi.

Shuningdek, muammoli savollar, dialogik muloqot, badiiy matn interpretatsiyasi, munozara, mustaqil fikr bayoni va refleksiv topshiriqlarning o'quvchi nutqiy faolligini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi. Olingan nazariy natijalarni umumlashtirish orqali adabiyot ta'limida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari tizimlashtirilib, ularning badiiy idrokdan mustaqil nutqiy ifodagacha bo'lgan yaxlit rivojlanish jarayonidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan nazariy tahlillar adabiyot ta'limida nutqiy kompetensiyani shakllantirish o'quvchining faqat lug'at boyligi yoki grammatik bilimlarini rivojlantirish bilan cheklanmasligini ko'rsatdi. Mazkur jarayon badiiy matnni idrok etish, uning mazmuniy va g'oyaviy qatlamlarini anglash, obrazlar munosabatini tahlil qilish, muallif pozitsiyasini aniqlash, voqea-hodisalarga shaxsiy baho berish hamda hosil bo'lgan fikrni og'zaki yoki yozma nutqda ifodalash bosqichlarining o'zaro uzviy bog'liqligi asosida yuzaga keladi. Shu jihatdan nutqiy kompetensiyaning shakllanish mexanizmi badiiy idrok - anglash - interpretatsiya - baholash - nutqiy ifoda - refleksiya ketma-ketligi orqali namoyon bo'lishi aniqlandi. Ushbu bosqichlarning har biri o'quvchining kognitiv va kommunikativ faolligini kuchaytirib, fikrni mustaqil shakllantirish va uni mazmunan asoslangan tarzda ifodalash uchun psixologik zamin yaratadi.



Tahlillar nutqiy kompetensiya kognitiv, motivatsion, emotsional, kommunikativ va reflektiv omillarning o'zaro bog'liq pedagogik-psixologik tizimi asosida rivojlanishini ko'rsatdi. Kognitiv omil matn mazmuni va sabab-oqibat aloqalarini anglashni, motivatsion omil faol ishtirok va fikr bildirish ehtiyojini, emotsional omil esa shaxsiy munosabatni shakllantiradi. Kommunikativ omil ushbu munosabatni verbal ifodalashga, reflektiv omil esa fikr va dalillash usullarini qayta baholashga xizmat qiladi.

Mazkur omillardan birining sustligi nutqiy faoliyatning yaxlit rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Adabiyot darslarida badiiy matn interpretatsiyasi nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning muhim pedagogik vositasidir. Interpretatsiya jarayonida o'quvchi matn dalillarini tanlaydi, bog'laydi, shaxsiy pozitsiyasini shakllantiradi va uni nutq orqali asoslaydi. Muammoli savollar, qiyosiy tahlil, obrazlarga baho berish, muallif va qahramon pozitsiyalarini farqlash hamda alternativ talqinlar yaratish reproduktiv nutqdan produktiv nutqqa o'tishni ta'minlaydi. Natijada mustaqil fikrlash, dalillash, munosabat bildirish va fikrni kommunikativ vaziyatga mos ifodalash qobiliyati rivojlanadi. Dialogik muloqot va munozara nutqiy kompetensiyani faollashtiruvchi muhim usullardir. Bunday jarayonda o'quvchi nafaqat o'z fikrini ifodalaydi, balki boshqa nuqtayi nazarni tinglaydi, baholaydi, dalillarni qabul yoki rad etadi hamda o'z pozitsiyasini aniqlashtiradi. Natijada nutqning mantiqiyliigi, izchilligi, dalillanganligi va kommunikativ moslashuvchanligi rivojlanadi. Badiiy asarning ko'p talqinligi esa muqobil fikrlarni qiyoslash, nutqiy strategiyani tanlash va shaxsiy nuqtayi nazarni asoslash uchun qulay metodik muhit yaratadi. Tadqiqot natijalari reflektiv topshiriqlarni adabiyot ta'limidagi nutqiy rivojlanishning yakuniy emas, balki muntazam bosqichi sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. O'quvchining "Nima uchun shunday fikr bildirdim?", "Qaysi dalilim kuchliroq bo'ldi?", "Fikrimni qanday aniqroq ifodalashim mumkin?" kabi savollar asosida o'z nutqini tahlil qilishi unda metakognitiv nazoratni rivojlantiradi.

Natijada o'quvchi faqat badiiy matn talqin qiluvchi emas, balki o'z nutqiy faoliyatini kuzata oluvchi va takomillashtiruvchi subyektga aylanadi. Bu esa nutqiy kompetensiyaning barqaror shakllanishida muhim pedagogik-psixologik shartlardan biri hisoblanadi. Umumlashtirilgan natijalar nutqiy kompetensiyani rivojlantirish samaradorligi badiiy idrok, kognitiv tahlil, emotsional munosabat, dialogik faoliyat va refleksiyaning yagona didaktik jarayonda uyg'unlashuviga bog'liqligini ko'rsatdi. Shu asosda adabiyot darsida nutqiy kompetensiyani shakllantirish matn qabul qilishdan mustaqil nutq yaratishgacha bo'lgan pedagogik-psixologik transformatsiya jarayoni sifatida talqin etiladi. Bu jarayon o'quvchini badiiy matn asosida mustaqil fikrlovchi, baholovchi, dalillovchi va o'z nutqini boshqara oluvchi faol kommunikativ shaxs sifatida rivojlantiradi.

1-jadval: Adabiyot ta'limida nutqiy kompetensiyani shakllantiruvchi pedagogik-psixologik omillar

Pedagogik-psixologik omil	Mazmuni	Adabiyot darsida namoyon bo'lishi	Asosiy metodik vositalar	Nutqiy kompetensiyadagi natija
Kognitiv omil	Anglash, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish jarayonlarini faollashtiradi	Badiiy matn mazmuni, obrazlar tizimi, sabab-oqibat munosabatlari va muallif g'oyasini anglash	Muammoli savollar, qiyosiy tahlil, matn interpretatsiyasi	Mantiqiy, izchil va dalillangan fikr shakllanadi
Motivat-sion omil	O'quvchida o'qish, fikrlash va o'z munosabatini ifodalashga ichki ehtiyoj hosil qiladi	Asarga qiziqish, savol berish, munozarada faol ishtirok etish	Muammoli vaziyat, ijodiy topshiriq, erkin fikr bayoni	Nutqiy faollik va mustaqil fikr bildirish kuchayadi
Emotsional omil	Badiiy obraz va voqealarga shaxsiy-hissiy munosabatni shakllantiradi	Qahramon holatini his etish, voqealarni baholash, shaxsiy munosabat bildirish	Empatik savollar, obrazli tahlil, baholash topshiriqlari	Nutqning emotsional-ekspressiv va baholovchi xususiyati rivojlanadi
Kommuni-kativ omil	Fikrni muloqot vaziyatiga mos ravishda ifodalash va boshqa pozitsiyalar bilan munosabatga kirishishni ta'minlaydi	Dialog, munozara, savol-javob, fikr almashish	Dialogik muloqot, debat, guruhli muhokama	Kommunikativ moslashuvchanlik, tinglash va dalillash malakasi rivojlanadi
Reflektiv omil	O'quvchining o'z fikri va nutqiy faoliyatini tahlil qilishi hamda baholashiga xizmat qiladi	O'z javobini qayta ko'rib chiqish, xato va kamchiliklarni aniqlash	O'z-o'zini baholash, reflektiv savollar, tahrirlash	Nutqiy nazorat, aniqlik va o'z fikrini takomillashtirish ko'nikmasi shakllanadi
Inter-pretativ omil	Badiiy matn mazmunini individual anglash va yangi ma'no yaratishni ta'minlaydi	Obraz, syujet, badiiy detal va muallif pozitsiyasini turlicha talqin qilish	Matn interpretatsiyasi, alternativ talqin, muallif pozitsiyasini aniqlash	Mustaqil nutq yaratish, asoslash va mazmuniy yaxlitlik rivojlanadi



Jadval ma'lumotlari adabiyot ta'limida nutqiy kompetensiya alohida bir pedagogik yoki psixologik omil ta'sirida emas, balki kognitiv, motivatsion, emotsional, kommunikativ, refleksiv va interpretativ jarayonlarning o'zaro integratsiyasi asosida shakllanishini ko'rsatadi. Mazkur omillar badiiy matnni idrok etishdan boshlab uni anglash, baholash, talqin qilish va mustaqil nutqiy ifodalashgacha bo'lgan bosqichlarni yagona tizimga birlashtirib, o'quvchining reproduktiv nutqdan dalillangan, mustaqil va kommunikativ jihatdan maqsadga muvofiq nutq yaratish darajasiga o'tishini ta'minlaydi. Jadvalda ajratilgan pedagogik-psixologik omillarning nutqiy kompetensiyaga ta'sirini adabiyot darsidagi aniq faoliyatlar misolida ko'rish mumkin. Masalan, badiiy asardagi qahramonning muayyan xatti-harakatiga "Qahramon nima sababdan bunday qarorga keldi?" yoki "Uning qarorini oqlash mumkinmi?" mazmunidagi muammoli savollarning berilishi o'quvchini matndan tayyor javob izlashdan ko'ra, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, dalillarni saralash va o'z xulosasini shakllantirishga undaydi. Bunday topshiriqda kognitiv omil fikrning mazmunini yaratadi, o'quvchining javobini asoslash zarurati esa uni mantiqiy va izchil nutq tuzishga yo'naltiradi. Agar bir qahramonning xatti-harakatiga ikki xil nuqtayi nazardan baho berish taklif etilsa, o'quvchi birgina talqinni takrorlamaydi, balki muqobil pozitsiyalarni qiyoslaydi, ularning kuchli va zaif tomonlarini ajratadi hamda o'z munosabatini dalillar orqali ifodalaydi. Bu jarayon interpretativ fikrlash bilan nutqiy faoliyatning bevosita bog'liqligini namoyon etadi.

Motivatsion va emotsional omillarning ta'siri o'quvchining badiiy matnga shaxsiy munosabatini yuzaga chiqaradigan topshiriqlarda yanada aniq namoyon bo'ladi. Masalan, "Siz qahramon o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutardingiz?" yoki "Asardagi qaysi vaziyat sizda kuchli munosabat uyg'otdi va nima uchun?" kabi savollar o'quvchini voqeaga tashqi kuzatuvchi sifatida emas, balki uning mazmunini shaxsiy tajribasi va qadriyatlar bilan bog'lovchi faol subyekt sifatida ishtirok etishga undaydi. O'quvchi o'z kechinmasini tushuntirish jarayonida nafaqat baholovchi leksik birliklardan foydalanadi, balki sababni izohlash, munosabatni asoslash va fikrini suhbatdoshga tushunarli shaklda bayon etishga harakat qiladi. Demak, emotsional idrok nutqiy faollikni yuzaga keltiruvchi ichki stimulga, motivatsiya esa ushbu faollikning davomiyligini ta'minlovchi psixologik mexanizmga aylanadi. Kommunikativ omil dialog va munozara jarayonida ayniqsa faol namoyon bo'ladi. Masalan, sinf o'quvchilariga badiiy qahramonning qarorini qo'llab-quvvatlovchi va unga qarshi pozitsiyalarni himoya qilish vazifasi berilganda, har bir ishtirokchi o'z fikrini ifodalash bilan cheklanmay, boshqa o'quvchining dalilini tinglashi, unga munosabat bildirishi va zarur hollarda o'z pozitsiyasini aniqlashtirishi kerak bo'ladi. Bunda nutqiy kompetensiyaning muhim ko'rsatkichlari – muloqot vaziyatini hisobga olish, dalil tanlash, qarshi fikrga javob qaytarish, fikrlar o'rtasida mantiqiy bog'lanish yaratish hamda kommunikativ strategiyani o'zgartirish kabi ko'nikmalar rivojlanadi.

Shu sababli adabiyot darsidagi munozara faqat bilimni tekshirish vositasi emas, balki real kommunikativ faoliyatni modellashtiruvchi pedagogik mexanizm sifatida baholanishi mumkin. Refleksiv omil esa o'quvchining o'zi yaratgan nutqiy mahsulotga qayta murojaat qilishi orqali namoyon bo'ladi. Masalan, yozma tahlildan so'ng o'quvchiga "Qaysi fikringiz yetarli dalillanmagan?", "Qaysi jumlani aniqroq ifodalash mumkin?" yoki "Xulosangiz matndagi qaysi dalilga tayanadi?" kabi savollar asosida o'z ishini qayta ko'rib chiqish topshirig'i berilishi mumkin. Natijada o'quvchi matn mazmunini anglash bilan bir qatorda, o'zining fikrlash va nutq yaratish jarayonini ham nazorat qila boshlaydi.

Shunday qilib, misollarni tahlil qilish kognitiv, motivatsion, emotsional, kommunikativ, interpretativ va refleksiv omillar bir-biridan ajralgan holda emas, balki badiiy matn bilan ishlashning yagona pedagogik-psixologik jarayonida o'zaro ta'sir ko'rsatishini dalillaydi; aynan shu integratsiya o'quvchining tayyor mazmunni qayta bayon qilishdan mustaqil, asoslangan va kommunikativ jihatdan maqsadga muvofiq nutq yaratish darajasiga ko'tarilishini ta'minlaydi.

XULOSA

Olib borilgan tahlillar adabiyot ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirish pedagogik va psixologik omillarning o'zaro integratsiyasiga asoslangan murakkab jarayon ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi: Adabiyot ta'limida nutqiy kompetensiyaning shakllanishi badiiy matnni idrok etish, anglash, interpretatsiya qilish, baholash, nutqiy ifodalash va refleksiya bosqichlarining izchil hamda o'zaro bog'liq faoliyati orqali yuzaga keladi. Mazkur jarayon o'quvchining tayyor axborotni takrorlashidan mustaqil ma'no yaratish va asoslangan fikr bildirish darajasiga o'tishini ta'minlaydi.

Nutqiy rivojlanishda kognitiv, motivatsion, emotsional, kommunikativ, interpretativ va refleksiv omillar funksional yaxlitlik hosil qiladi. Kognitiv faoliyat fikr mazmunini shakllantirsa, motivatsiya va emotsional munosabat nutqiy faollikni rag'batlantiradi, kommunikativ hamda refleksiv jarayonlar esa fikrning aniq, izchil va vaziyatga mos ifodalanishini ta'minlaydi. Badiiy matn interpretatsiyasi, muammoli savollar, dialogik muloqot va munozara o'quvchining reproduktiv nutqini produktiv nutqqa aylantiruvchi samarali pedagogik vositalar sifatida namoyon bo'ladi. Ular matndan dalil tanlash, muqobil fikrlarni qiyoslash, shaxsiy pozitsiyani shakllantirish hamda uni mantiqiy asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradi.



Adabiyot darslarida emotsional idrok va shaxsiy munosabatning faollashuvi nutqiy kompetensiyaning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'quvchining obraz va voqealarga nisbatan hissiy-baholovchi munosabati nutqning mazmuniy chuqurligi, ekspressivligi va kommunikativ ta'sirchanligini kuchaytiradi. Refleksiv faoliyat nutqiy kompetensiyaning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim psixologik mexanizm hisoblanadi. O'quvchining o'z fikrini, dalillash usulini va nutqiy ifodasini qayta baholashi unda metakognitiv nazorat, o'z-o'zini tahrirlash hamda nutqiy faoliyatni mustaqil takomillashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Umuman, adabiyot ta'limida nutqiy kompetensiyaning samarali shakllantirish badiiy matn bilan ishlashni kognitiv tahlil, emotsional munosabat, dialogik hamkorlik, interpretatsiya va refleksiya bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi. Bunday yondashuv o'quvchini fikrni oddiy qayta bayon qiluvchi emas, balki badiiy mazmuni mustaqil anglaydigan, baholaydigan, dalillaydigan va kommunikativ vaziyatga mos nutq yarata oladigan faol subyekt sifatida rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский Л. С. Мышление и речь / Л. С. Выготский. - 5-е изд., испр. - Москва: Лабиринт, 1999. - 352 с.
2. Леонтьев А. А. Язык, речь, речевая деятельность / А. А. Леонтьев. - Москва: Просвещение, 1969. - 214 с.
3. Бахтин М. М. Проблемы поэтики Достоевского / М. М. Бахтин. - 3-е изд. - Москва: Художественная литература, 1972. - 470 с.
4. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment - Companion Volume. - Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. - 278 p. - ISBN 978-92-871-8621-8.
5. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari / Q. Yo'ldoshev. - Toshkent: O'qituvchi, 1996. - 152 b.
6. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi / B. To'xliyev. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. - 157 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.